

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, X.N.Qosimova</b>	
Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati .....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b>	
Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To'xtaboyev</b>	
Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o'ttasida anketa so'rovnomasи tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b>	
Tarixiy-badiiy asarlar bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b>	
Vrach-shifikorning pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayeva</b>	
Xalq pedagogikasi vositasida o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b>	
Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b>	
Ta'lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b>	
Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b>	
Fanlararo hamkorlik asosida o'quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b>	
Maktabda musiqa fanini o'qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b>	
Texnologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b>	
Ta'limgagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b>	
O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalillova</b>	
Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISH  
MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗРАБОТКА МЕХАНИЗМОВ РЕАЛИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
В ВУЗАХ**

**DEVELOPMENT OF MECHANISMS FOR IMPLEMENTING ENVIRONMENTAL  
EDUCATION IN UNIVERSITIES**

**Mamajonov Shuxratjon Askarovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Annotatsiya**

*Maqolada oliy ta'lrim muassasalarida talabalarni ekologik tarbiyalashning zarurati va ahamiyati, ekologik tarbiyani mazmun-mohiyati, mexanizm atamasining lug'aviy ma'nosi, oliy pedagogik ta'lrim yo'nalishlarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilganligi va uni rivojlantirish borasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlaringin natijalari batafsil yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются необходимость и значение экологического воспитания студентов высших учебных заведений, сущность экологического образования, словарное значение термина «механизм», разработка механизмов реализации экологического образования в сферах высшего педагогического образования и обсуждались его разработки, подробно описаны результаты экспериментальных работ.*

**Abstract**

*The article discusses the need and importance of environmental education for students of higher educational institutions, the essence of environmental education, the dictionary meaning of the term "mechanism", the development of mechanisms for the implementation of environmental education in the areas of higher pedagogical education and discussed its developments, the results of experimental work are described in detail.*

**Kalit so'zlar:** ekologik tarbiya, mexanizm, ekologik tarbiya mexanizmlari, xamkorlik mexanizmi, talabalar bilan ishlash mexanizmi.

**Ключевые слова:** экологическое образование, механизм, механизмы экологического образования, механизм сотрудничества, механизм работы со студентами.

**Key words:** ecological education, mechanism, mechanisms of ecological education, mechanism of cooperation, mechanism of working with students.

**KIRISH**

Insoniyatni kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o'rtaidagi muvozanatning barqarorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har bir shaxs ekologik bilimlarga ega bo'lmoshni zarur, chunki sayyoramiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. Yoshlar o'rtaida ekologik bilim, ong, madaniyat hamda ekologik ta'lum-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ekologiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirishni, yoshlarning Ona tabiatni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini oshirishni davrning o'zi talab etmoqda. Bugungi kunda sayyoramizda kuzatilayotgan eng yirik ekologik inqirozlar (inqilom o'zgarishi, bioxilma-xillikni yоqо'lishi, atmosfera havosini o'zgarishi) va dunyoning turli mamlakatlarida sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar va halokatlar oqibatlarini bartaraf etish, yumshatish fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda ekologik tarbiya mexanizmlaridan xabardor bo'lishni talab etadi [1].

**ASOSIY QISM**

Biz tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, "ekologik tarbiya" tushunchasini keng tadqiq qilishga kirishdik va ekologik tarbiya-ta'lum va tarbiya (atrof-muhit sohasidagi rasmiy va norasmiy ta'lum orqali qabul qilinadigan tushunchalar va sifatlar) - insonda atrof-muhitni ongli ravishda idrok etish, tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish zarurligiga ishonch hosil qilishda namoyon bo'lishiga e'tiborni qaratdik.

Pedagogik adabiyotlarda «tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda "tarbiya" inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyatdagi ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, yoshlar

## PEDAGOGIKA

tashkilotlarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki jamiyatdagi, butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniyani ham o'z ichiga olib, ta'lif berish orqali tarbiyalash jarayonini bildiradi va "keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lif va ma'lumot olish ham kiradi" [2].

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori bilan tasdiqlangan Konsepsiya ta'kidlanganidek, tarbiya va ta'lifni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobi, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak manaviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Ushbu Konsepsiyanı ustuvor yo'nalishlari sifatida ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-on, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lif muassasalari va mahalla jamoatchiligini o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish kabi vazifalar belgilangan [3]. Ushbu vazifalardan kelib chiqib biz ham o'z tadqiqot ishimiz davomida uzluksiz ma'naviy tarbiya bilan bevosita chambarchas bog'liq bo'lgan ekologik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish, uni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish, baholashni ilmiy asoslangan me'zonlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratdik.

Avvalo, mexanizm deganda, nimani tushunamiz? degan savolga javob berib o'tsak, o'rinci bo'ladi. Mexanizm – (yunoncha: "mechanе"-tuzilma, strukturali harakatning qurilmasi va b.) — pedagogikada bir, yoki, bir necha jarayon, yoki hodisani boshqa hodisalarning ma'lum harakatiga aylantirib beradigan tuzilmasi bo'lib, o'rganilayotgan jarayonning asosini tashkil etadi. Vazifasiga qarab, mexanizmlar harakatni uzatuvchi; ijrochi (ish bajaruvchi); boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va rostlovchi; ta'minlovchi, saralovchi, tashuvchi; pedagogik, didaktik mahsulotlarni muvofiqlashtiruvchi komponentlardan tashkil topadi [4]. Shundan kelib chiqib, biz ekologik tarbiya mexanizmlari-shaxsnинг rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik determinantalar: shartlar, sabablar, omillar orqali ekologik tarbiyani amalga oshirishga mo'ljallangan harakatni o'zgartiruvchi va tarbiya yo'nalishlarini sifat jihatdan boshqa turiga aylantiruvchi, ijtimoiy muhitga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi texnologik jarayon,-degan xulosaga keldik. Bunda ekologik tarbiyani boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va rostlovchi tarbiya modellari, prinsiplari, metodlari, usullari, vositalari kabi mexanizm komponentlaridan tashkil topgan texnologik jarayon ekologik madaniyatni ekologik faoliyat bilan uyg'unlikda ta'minlovchi, uni boshqarilib turilishini amalga oshiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik tarbiya mexanizmi tarkibiga kiruvchi komponentlar o'zaro biriktirilgan bir necha ayrim qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Bir-biriga ta'sir etuvchi komponentlar pedagogik jarayonning o'zaro harakatlanadigan birikmasi sifatida qaraladi va tarbiyaviy harakatni o'zgartirishda, uni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiqot mobaynida yuqorida ta'kidlangan ekologik tarbiyaning mexanizm komponentlari asosida uni takomillashtirishga kirishdik (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. Oliy ta'limga muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari

Oliy ta'limga muassasalarida jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning barcha sohalari, fan, ta'limga tizimiga taalluqli bir qator strategik ahamiyatga ega yo'nalishlar qamrab olingan. Undan kelib chiqadigan vazifalar tizimda faoliyat olib borilayotgan mutaxassislardan yangilanayotgan O'zbekiston ta'limga siyosatining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashni, ularning ijrosiga nisbatan taraqqiyot mezonlari asosida ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishni talab qildi.

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan "Yashil makon" umummilliylar loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi ham oliy ta'limga "yashil ekologik samaradorlikka erishish"ga olib keladi. Bu ham yoshlarni ekologik tarbiyasini mustahkamlashdagi ta'sirchan mexanizm hisoblanadi.

Bu esa oliy ta'limga tahsil oladigan bo'lajak mutaxassislarni yashil ekologik samaradorlikka ijobjiy ta'sirini ochib beradi. Oliy ta'limga yashil ekologik samaradorlikka bilvosita ta'sir qilish yoki to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishdan tashqari, oliy ta'limga texnologik innovatsiyalar va jamoatchilikning atrof-muhitga e'tiborini yaxshilash orqali yashil ekologik samaradorlikka bilvosita ta'sir qilishi mumkin.

Oliy ta'limga innovatsion qobiliyatni yaxshilashga yordam berishi va mintaqaviy mehnat unumdarligini hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, bu ba'zi tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan. Oliy ta'limga bilim va ilmiy ko'nikmalarni ta'minlash orqali texnologik innovatsiyalarini rag'batlantiradi, bu nafaqat ishlab chiqarishni yaxshilashga yordam beradi, balki resurslar sarfini va atrof-muhit ifloslanishini ham kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan biz oliy ta'limga quyidagi ekologik tarbiya (o'qitish orqali tarbiyalash) mexanizmini ko'rsatib o'tamiz:

### Oliy ta'limga - vositachilik ta'siri - texnologik innovatsiya - atrof-muhitga e'tibor - "yashil samaradorlik".

Biz tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ekologik tarbiya, avvalo, ekologik ta'limga boshlanadi, degan nuqtai nazardan oliy pedagogik ta'limga yo'nalishida o'qitiladigan, talabalarga ekologik ta'limga va tarbiya beruvchi fan "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" fanini o'qitilishini tahlil qildik, bu boradagi mavjud muammolarni aniqladik, ularni yechimi bo'yicha o'zimizni metodikamizni taklif qildik, ya'ni fanni o'qitishga innovatsion yondashuv, moddiy-texnik baza, axborot va dasturiy ta'minot vositalari, hamkor tashkilotlar imkoniyatlardan foydalanish, fan dasturida berilgan soat hajmiga nisbatan mavzularni haddan ziyod ko'pligini tahlil qilgan holda, mustaqil ta'limga alohida e'tibor qaratdik. Bu borada talabani ekologik bilim olish trayektoriyasi tushunchasini amaliyatga

## PEDAGOGIKA

joriy etdik. Ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari sifatida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratdik. Jumladan,

**1-Hamkorlik mexanizmi.** Bu borada ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlari viloyat va shahar boshqarmalari, ekologik partiya viloyat va shahar kengashi, mahalla va nuroniyarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi viloyat va shahar bo'limlari, Yoshlar ittifoqi, ommaviy-axborot vositalari bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi, bunda samaradorlik va natijadorlikka yo'naltirilgan hamkorlikdagi tadbirlar, uchrashuvlar, treninglar, debatlar, babs-munozaralar, kechalar o'tkazildi.

**2-Talabalar bilan ishslash mexanizmi.** Biz tahlillar davomida o'tkazgan so'rovnomalari asosida natijasida, oliy ta'lif muassasalarida ekologik tadbirlar faqat mas'ul idoralarni so'rovlar asosida o'tkazilishi aniqlandi. Shuning uchun tadbirlarni talabalarini taklif va tashabbuslari asosida yo'nga qo'yishga va o'tkazishga alohida e'tibor qaratdik. Bu borada talabalar bilan o'tkazilgan suhabatlar, ochiq muloqotlar, so'rovnomalari natijalari, ularni qiziqtiradigan ekologiya, atrof-muhit va ekologik tarbiyani qanday singdirish borasidagi fikrlari, qiziqishlari, salohiyati va iqtidoridan kelib chiqib, bu boradagi bir qator yetakchi mutaxassislar va o'zimizning kuzatishlarimiz va tajribamizdan kelib chiqib, talabalar o'ttasida quyidagi yo'nalishlarda guruhrular faoliyati yo'nga qo'yildi,

**1-guruh.** Axborot va ekologik targ'ibot guruhi. Ushbu guruuh talabalari ekologik muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar, bugungi kundagi mavjud ekologik vaziyat, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun, farmon, qaror va boshqa meyoriy hujjatlar mazmun-mohiyati, bu borada bugungi kunda ularni ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida mas'ul idoralar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan aniq va real ma'lumotlarni o'rjanib, tahlil qilib, qisqa, talabalarga tushunarli, ta'sirchan, e'tiborni jalb qiladigan yo'nalishlarda axborot, buklet, tarqatma materiallar bilan shug'ullandi, OTM radiosida chiqishlar, doimiy haftalik axborotlar berib borildi, veb saytlarda maxsus ruknlar tashkillandi. Oliy ta'lif muassasalarida targ'ibot tadbirlari, turli loyihamalar o'tkazildi. Masalan, "Ekologik toza hudud", "Chiqindisiz universitet", seminar, ilmiy anjumanlar, axborot va murabbiylik soatlarini o'tkazishga ko'maklashildi.

**2-guruh.** Talabalar o'ttasida turli intellektual o'yinlar, bellashuvlar, ijodiy ishlar, insholar, esselar tanlovlari, qiziqarli savol-javoblar, blits so'rovlari, ko'rik-tanlovlari, sport musobaqalari va boshqa tadbirlarni tashkilovchi "Ekolog talabalar" guruhi. Ushbu guruuh tomonidan ekologiya, ekologik muammolar, tabiatni asrab avaylash, unga ongli munosabat borasida "Zakovat" intellektual bellashuvlari, "Eng bilimdon ekolog talaba", "Eng ko'rkan va shinam talabalar turar joyi", "O'l kamiz tabiatini asrashga mening hissam", "Biz sog'lom turmush tarzi tarafdomiz", "Biz bugungi kun va kelajak uchun javobgarmiz", "Suvni birgalikda asraylik" mavzusida bellashuvlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari va tadbirlar tashkillandi, g'oliblarni rag'batlantirish tizimi bo'yicha takliflar tayyorlandi va goliblar munosib ragbatlantirildi.


**3-guruh.** Bu guruuh "Ekologiyaga mening hissam, men tabiatga befarq emasman" deb nomlanib, talabalar ko'ngilli ravishda OTMlар hududiga ekilgan manzarali daraxtlar, butalar, gullar parvarishi bilan shug'ullandi. Bunda OTM hududidagi har bir daraxtni "Pasporti" (nomi, vatani, qachon ekilganligi, yoshi) haqidagi ma'lumotlarni aniqlab, chiroyli dizayn asosida joylashtirib chiqildi, darsdan tashqari bo'sh paytlarida ko'ngilli va ixtiyorli, ongli ravishda OTMlар hududidagi manzarali daraxtlar va butalarni oqlash, shakl berish, yerlarni yumshatish, gullar ekish, sug'orish va parvarishlashda ishtirok etdilar. OTMlarni yordamchi xo'jaliklarida "biologiya", "botanika", "ekologiya", "anorchilik", "uzumchilik" ta'lif yo'nalishlari ko'ngilli talabalari va mutaxassislardan iborat guruuh yordamida "Ekobog'lar" tashkilash ishlariga amaliy yordam ko'rsatdilar, kimyoviy zaharli preparatlarsiz, organik yo'l (biogumus, zarari inson hayotiga kam xavf soluvchi preparatlardan foydalanim) bilan ekologik sof maxsulotlar yetishtirish ishlari bilan shug'ullandilar. Mamlakatimizda ekotizimni yaxshilash maqsadida umumxalq xarakatiga aylangan "Yashil makon" umummiliy loyihasida ongli ravishda faol ishtirok etdilar.

## XULOSA

Shunday qilib, biz tadqiqotlarimiz davomida oliy pedagogik ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini aniqlash va uni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqqan metodikamiz bo'yicha tajriba sinov ishlari 2019-2020, 2020-2021, 2021-2022-o'quv yillarda Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari o'ttasida o'tkazildi.

Tajriba-sinov o'tkazilgan oliy ta'lif muassasalari bo'yicha umumiylar natijalar alohida ajratib olindi va statistik tahlil o'tkazildi.

Tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi natijalarga ko'ra talabalarning ekologik bilim sohasiga oid o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba va nazorat guruuhlarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari bir-biridan farq qilib, tajriba guruuhlari samaradorlik ko'rsatkichi 1.16 ga, nazorat guruuhlari samardorligi deyarli o'zgarmaganligiga, shuningdek tajriba guruhlarning tajriba boshi va yakunidagi natijalarga ko'ra Stuydent statistikasi asosida olingan empirik qiymat kritik qiymatdan kattaligi uchun  $H_1$  gipoteza qabul qilinishiga, nazorat guruuhlarida esa bu natijalarning aksi, ya'ni empirik qiymat kritik qiymatdan kichikligiga erishildi.



**2-rasm. Tajriba boshida va tajriba yakunida olingan natijalarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Bundan ko'rindiki, tajriba boshi va yakunidagi tajriba guruuhlarida egoliyiya sohasiga oid bilim darajalari bir-biridan farq qilishligi asoslandi va olib borilgan tadqiqot ishidagi o'qitish sifatini baholash ko'rsatkichi birdan kattaligi va talabalar bilimini baholash darajasi noldan kattaligi olib borilgan tadqiqot ishining samarli ekanligini isbotladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Sh.A.Mamajonov. "Oliy ta'lifda ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish zaruriyati". "Raqamli ta'lifning zamonaliv tendensiyalari va ularni ta'lif-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallar to'plami 25.10.2023 O'ZPFITI, Toshkent. 291-293 betlar.
- <https://qomus.info/e>.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi 1059-sonli qarori.
- Торгунская Н.Л. Условия и механизмы реализации педагогических инноваций в образовании // Известия Рес. гос. пед. ун-та им. А.И. Герцена. 2007. № 32, т. 11. С. 400–403.